

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.I.Madaliyev	
Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	312
K.R.Sadikov	
Mumtoz asarlardagi arxaik so'zlarning lingvistik ahamiyati	316
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida Jorj Eliotning ijodi va tanqidiy realizm	318
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy jihatlarini	322
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va didaktik asoslari.....	326
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining tarjima qilish muammolari.....	330
Sh.S.Tilavova	
Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlari.....	333



UO'K: 37.014:305-055.2(575)

TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-QIZLAR TA'LIMI HAQIDAGI QARASHLARI**ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА ЖЕНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ****VIEWS OF TURKESTAN JADIDS ON WOMEN'S EDUCATION**

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna 
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Turkiston mintaqasida jadid taraqqiyparvarlari xotin-qizlarni o'qimishli, ma'rifatli bo'lishi yurt ravnaqiga o'z hissasini qo'sha oladigan munosib barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda oiladagi totuvlikni ta'minlashda muhim omil deb hisoblaganlar. Ular o'z zamondoshlari, millat otalariga o'z qizlarini o'qitishga, ularning ta'limini isloh etishga da'vat etganlar. Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida xotin-qizlarning ta'lim olishi haqidagi ma'rifatparvarlar tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari davriy matbuot sahifalaridagi maqolalar, asarlari asosida tahlil qilinadi.

Аннотация

В Туркестанском регионе прогрессисты-джадиды считали женщин образованными, просвещенными, важным фактором воспитания достойного гармоничного поколения, способного внести свой вклад в процветание страны, а также обеспечить гармонию в семье. Они призывали своих современников, отцов нации, обучать своих дочерей, реформировать их образование. В данной статье освещаются взгляды просветителей на образование женщин в Туркестанском крае в конце XIX – первой четверти XX века на основе статей, работ на страницах периодической печати, исторического анализа.

Abstract

In the Turkestan region jadid progressives considered women to be educated, educated, an important factor in raising a worthy harmonious generation that can contribute to the prosperity of the country, as well as ensuring harmony in the family. They encouraged their contemporaries, fathers of the nation, to educate their daughters, to reform their education. In this article, the views of the enlightenment on the education of women in the Turkestan region at the end of the XIX – first quarter of the XX centuries are covered by historical analysis on the basis of articles, works on the pages of the periodical press.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, xotin-qizlar, dastur, ta'lim, ilm-ma'rifat, davriy matbuot sahifalari, oila, tatar ziyolilari, xotin-qizlar maktabi, yangi usul maktablari.

Ключевые слова: джадидистское движение, женщины, программа, Образование, наука-просвещение, страницы периодической печати, семья, татарская интеллигенция, женская школа, школы нового метода.

Key words: jadidism movement, Women, program, Education, Science, Periodical Press pages, family, tatar intellectuals, women's school, new method schools.

KIRISH

Turkiston mintaqasida XIX asrning ikkinchi yarmidan vujudga kelgan jadidchilik harakatining vakillari davriy matbuot sahifalarida, she'rlari va asarlarida, teatr uchun mo'ljallangan sahna asarlarida xotin-qizlarni ta'lim olib ma'rifatli, savodxon va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishlariga da'vat etganlar. Chunki jadidlar yurt kelajagi jismonan, ruhan, aqlan barkamol bo'lgan yoshlar qo'lida ekanligini va bunday barkamol farzandlarni ma'rifatli, savodxon ayollargina voyaga yetkazishlarini yaxshi anglagan holda o'z zamondoshlarini xotin-qizlar ta'limiga e'tibor qaratish, ularning ta'limini isloh qilishga chaqirgan edilar. Ular jamiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'z dasturlarida xotin-qizlarning yuqori saviyada ta'lim olishi, o'gil bola va qizlarni birgalikda o'qitish kabi g'oyalarni ham ilgari surgan edilar va bu qarashlarning amalga oshishiga sababchi bo'lgan edilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Turkiston jadidlari Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin Shukrullo, So'fizoda, Tavallo

To'lagan Xo'jamyorov kabilarning matbut sahifalarida yozgan maqolalari, asarlari hamda she'rlaridan foydalanildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidlar tomonidan matbuot va asarlarida ko'tarilgan xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlarni tadqiq etib yoritishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston matbuotida jadidlar tomonidan xotin-qizlarni ma'rifatli qilish, ularning ta'limini isloh qilish, oila va jamiyatdagi o'rni kabi dolzarb masalalar ko'tariladi. Jumladan, taraqqiyparvar Abdulla Avloniy (1878-1934) xotin-qizlar jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini uqtirib, ularning ta'lim olishlari va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishlariga sharoit yaratib berish kerakligini ta'kidlagan [13. 42]. Abdulla Avloniy 1914-yil Sadoyi Turkiston gazetasining 25-aprel – 11 may sonida nashrdan chiqqan "Madaniyat to'lqinlari" deb nomlangan maqolasida ham haqiqiy madaniyatga erishishning muhim omillaridan biri sifatida yoshlarni o'lkada jadallik bilan kirib kelayotgan madaniyatga loyiq ravishda o'qishi, diniy-dunyoviy bilimga ega madaniyatli kishilarning tayyorlanishi, tarbiya va ta'limi mukammal bo'lgan olim, olima, adib va adibalar yetishishi [1. 341-342] deb ko'rsatadi. Adib ushbu fikrlari orqali o'g'il bolalar bilan bir qatorda xotin-qizlarni ham ilm olishga da'vat etganligini, yurt taraqqiyoti uchun o'qimishli bo'lsa, har ikkisinin ham munosib hissasi bo'lishini ta'kidlaganini ko'rish mumkin.

Turkiston jadidlarining rahnamosi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) davriy matbuot sahifalaridagi o'zining qarashlarida Turkiston mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ta'lim-tarbiyani kuchaytirish, isloh qilish borasidagi masalalar hamda kundalik hayotda va jamiyatdagi bir qator dolzarb muammolarini yoritib o'tadi. Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan o'zbek dramachiligining ilk namunasi 1911-yilda yozilib, 1913-yilda chop etilgan, keyinchalik bir necha bor sahnalashtirilgan "Padarkush" dramasida ham ushbu dolzarb muammolarni ko'taradi. "Padarkush" dramasi 3 pardali 4 ta manzaradan iborat bo'lib, unda jaholat va nodonlikka botgan, ilm olmagan, yomon yo'llarga kirib, o'z otasining qotiliga aylangan bolaning fojeasi haqida hikoya qilinadi. Muallif dramadagi qahramonlardan biri domulla tilidan *"bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, be'manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi.."*[5. 47] deb boyning xotiniga qarata aytilgan ushbu so'zlari orqali nafaqat boy va o'g'ilning balki, ayolning ilmsizligi, o'qimaganligini ham fojeaning ro'y berishiga asosiy sabablardan biri sifatida ko'rsatadi.

Jadidlardan Hoji Muin Shukrullo (1883-1942) 1918-yil 28-iyulda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida mashrdan chiqqan "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" deb nomlangan maqolasida qizlarning ta'limiga yetarlicha e'tibor berilmasligi, qiz bolalarni o'qitish uchun muallimalarning yetarli emasligi, islom dini erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlarga ham ilm o'rganishni farz etganligi, ammo zamondoshlari xotin-qizlarning bu huquqlarini poymol etib, uyda saqlashlarini aytib kuyunib yozgan edi. U zamondoshlarini, millat ziyolilarini "Qizlar maktabi" ni ochishga, xotin-qizlarni o'qitish va haq-huquqlarini himoya qilishga chaqirgan edi [4.81-84]. Taraqqiyparvarlardan N.Husanzoda ham "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1920-yil 25-noyabr sonida chiqqan maqolasida Turkistonning aksariyat xotin-qizlari butun dunyodan xabarsiz, bilim va tarbiyadan mahrum qolganliklari, ayollarning bilimsizliklari sababli ham millionlarcha bolalar tarbiyasiz bo'lib qolganliklarini tanqid qilib yozadi. N.Husanzoda bolalar kelajagini mukammal suratda ko'rish va tarbiyalash uchun eng avvalo qiz bolalarni o'qitishni, ayol o'qituvchilar tayyorlaydigan kurs ochib, savodli muallimlar yetishtirish kerakligi haqidagi muhim tavsiyalarini berib o'tadi [8. 1].

Jadidlardan Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'zining asarlarida jamiyatning barcha sohalarini tubdan isloh qilishni, shu jumladan jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilaning huquqiy asoslarini yangilashni, xotin –qizlar huquqini poymol qilishga barham berishni, ularni ta'lim va ma'rifat jarayonlarida faol qatnashishga jalb qilishni yoqlab chiqqan edi. Abdurauf Fitratning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan 1916-yilda yozilgan "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida "Qizlar ham ilm olishi kerakmi" deb nomlangan mavzusida Abdurauf Fitratning xotin-qizlarning diniy va dunyoviy ilm egallashlarining ijobiy tomonlarini, ilm olishda erkaklar bilan teng ekanligini Qur'oni Karim va hadislardagi oyatlar orqali hamda misollar, qat'iy dalillar orqali isbotlab beradi. Ayol kishining o'qimishli, tarbiyali bo'lishi oiladagi mustahkamlik, totuvlikni ta'minlashda ham muhim rol bajarishini aytib o'tadi. Adib xotin-qizlar ilm olmasligining salbiy tomonlarini esa quyidagi so'zlar orqali ifodalaydi: *"xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va*

ILMIY AXBOROT

bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo'rqoqroq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar" [2. 128] deb yozadi va farzandning kelajakda qanday inson bo'lib ulg'ayishi xotin-qizlarning yaxshi tarbiya va diniy-dunyoviy ilm olishlariga bog'liq deb xulosa qiladi.

O'zbek va tatar ziyolilari tomonidan 1917-yil 25-apreldan 1918-yil 30-noyabrga qadar "Ulug' Turkiston" gazetasi nashr etilgan bo'lib, bu gazeta sahifalarida xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlar ham keng o'rin egallagan edi. Jumladan, tatar ziyolilaridan bo'lgan M.Arifaning "Ulug' Turkiston" gazetasining 1918-yil 2-iyul 111-sonida "Birinchi tovush" deb nomlangan maqolasi chop etiladi. Ushbu maqolada zamondoshlari va millat onalariga murojaat qilib, madaniy jihatdan rivojlangan millatlarning ayollari hayotidan misollar keltirib, ulardan ibrat olishga chaqiradi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan farzandlarni tarbiyalashda ayollarning xizmati beqiyos ekanligini uqtirib, xotin-qizlar ta'limining nechog'lik ahamiyatli ekanligini bir qancha dalillar keltirib isbotlaydi va zamondoshlarini o'z qizlari, opa-singillarini o'qitishga da'vat etadi [10. 52-53].

1914-yil 22-avgustda Toshkentda nashrdan chiqqan "Sabzavor to'plami" da o'z davrining ijodkorlari, shoirlari, jadidlari So'fizoda, Abdulla Avloniy, Xislat, Tavallo To'lagan Xo'jamiyrov, Ajiziy kabilarning ijod namunalari kiritilgan edi. Mazkur to'plamda kiritilgan xalqni o'zligini uyg'otishga xizmat qiladigan, jamiyatdagi dolzarb muammolarni o'zida aks ettirgan she'rlarda xotin-qizlarning ham ilm olishi, ta'lim olishda teng huquqlilik kabi masalalar keltiriladi. Jumladan, So'fizoda Muhammadsharifning "O'qunglar onalar" she'rida xotin-qizlarning ilm olishda aqliy jihatdan hech bir kishidan kam emasligi, ularga nisbatan ko'rsatilayotgan haqsizliklarga barham berish, nodonlikka qarshi kurashishning yagona yo'li ilm-ma'rifat ekanligini hamda yaxshi o'qish kerakligini ta'kidlab o'tadi [9. 13].

Abdulla Avloniyning ham "Sabzavor to'plami" da "Hijron" taxallusi bilan chop etilgan millat ongini uyg'otishga xizmat qiluvchi, barcha yomon illatlarni qoralab ko'rsatgan "Gapurmanglar" deb nomlangan she'rida o'gil-qizlarga yaxshi tarbiya berish, zamona otalariga farzandlarini o'qitish kerakligi ta'kidlab o'tilgan edi [9. 43].

Shuningdek, jadidlar xotin-qizlarning ta'lim olishi haqidagi fikr-mulohazalari bilangina cheklanib qolmadilar, balki, aniq dastur, reja orqali o'zlari ham xotin-qizlar ta'limi uchun maktablar ochib hamda o'qitib, o'z zamondoshlariga namuna bo'la oldilar. Jumladan, taraqqiyparvarlardan Abduqodir Shakuriy (1875-1943) 1901-yilning kuzida Samarqandda Rajabamin qishlog'ida birinchi yangi usul maktabini ochadi. Tez orada Abduqodir Shakuriy maktabining shuhrati butun o'lka bo'ylab tarqalgan edi va o'lkada boshqa ma'rifatparvarlarning e'tiborini ham jalb qiladi. U birinchi bo'lib, qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab ochgan edi [11. 249-250]. Unda o'zi rahbarligida rafiqasi muallimalik qilgan. Keyinchalik o'gil va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlagan [15]. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Xotiralarimdan" deb nomlangan kitobida yozilishicha, o'lkada 1907-yildayoq ziyolilar tashabbusi bilan o'gil va qizlar uchun umumiy bo'lgan yangi usuldagi maktab ochiladi. Bundan tashqari ayollar uchun maxsus usuli jadid maktablari ham tashkil etilgan edi [7. 62]. Jadidlardan Is'hoqxon Ibrat (1866-1937) ham o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda (To'raqo'rg'onda) 1907-yilda yangi usuldagi maktabni ochadi [12. 87]. Maktab eski usul maktablaridan tubdan farq qilib, dars jadvali ishlab chiqilgan, 40 minutlik dars hamda 10 minutlik tanaffus joriy qilingan edi [12. 90]. Bu maktabda o'z o'g'illari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxon, qizi Vasilaxonni hamda 50 nafar qishloq bolalarini o'qitadi [12. 87]. Maktabga Qozon tarafdari bo'lgan o'qituvchi Husayn Makayevni ham taklif etadi va rus tili o'qituvchisi etib tayinlaydi [12. 88]. 1912-yildan boshlab shu maktabni o'zida alohida qizlar guruhi ham ochiladi va bu guruhga Husayn Makayevning xotini Fotiha Makkayeva o'qituvchi etib tayinlanadi [3. 10].

Munavvarqori Abdurashidxonov "Qizil O'zbekiston" gazetasi 1924-yil 11-dekabr sonida "O'zbekistonda vaqf" deb nomlangan maqolasida Turkiston mintaqasida o'sha davr vaqf ta'minotida Xorazm va Buxorodan tashqari, 85 ta boshlang'ich maktab, 6638 nafar o'quvchi, 2-3 bosqich maktab, 400 nafar o'quvchi, 10 ta savodsizlar klubi, 6 ta ta'lim-tarbiya kursi mavjudligini, bundan boshqa vaqfqa qarashli klub, qiroatxona hamda xotin-qizlar bilim yurti va 25 nafar stipendiya oluvchilar borligi haqida ma'lumot beradi [6.179]. Toshkentda ham Eshonxo'ja Xonxo'jaevning yangi usul maktabida 3 nafar qiz, Sobirxon Rahimovning yangi usul maktabida ham 15 nafar qiz bolalar o'qiganlar. Qo'qon shahrining G'alchasoy mahallasida Muhammadjon

Holiqiy ham 1913 – yilda dastlab “usuli jadid”, keyin esa qizlar maktabini tashkil qilgan. Uning singlisi Soliyaxon Abdulholiq qizi o‘quvchilarga saboq bergan [14.9].

Turkiston mintaqasida xotin-qizlar ta’lim oladigan yangi usul maktablari bilan bir qatorda eski usul maktablari ham faoliyat yuritgan bo‘lib, ushbu maktablardagi o‘qitishda kamchiliklar borligini Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon “Turkiston” gazetasining 1923-yil 19-aprel sonida “Eski usul maktablarida imtihon” maqolasida tanqid qilib yozadi. U qizlar zehn, qobiliyat jihatidan o‘g‘il bolalardan qolishmasligini ta’kidlab, qizlar maktabida ta’lim beradigan muallimalarning savodxonlik darajasiga e’tibor qaratishni, ularning ma’lumotini orttirish kabi muhim tavsiyalarni berib, muallimalarga “o‘zbek qizining ruhig‘a va ehtiyojig‘a fidokor qilib yetishdirish” kabi mas’uliyatni yuklaydi [17]. Turkiston gazetasining 1923-yil 12-may sonida “Eng muhim bir vazifamiz” deb nomlangan maqolasida esa “Zarafshon” gazetasi (1913-yil aprel oyidan chiqqan boshlagan) da Ismoilzodaning “Unutilgan bir vazifa” sarlavhali maqolasida xotin-qizlarning maorifi borasida qilinayotgan ishlar, kamchiliklar haqidagi fikr – mulohazalariga javoban o‘g‘il bolalar ta’limiga ko‘proq e’tibor berilayotgani, xotin-qizlar ta’limidagi ahvol bilan bog‘liq jiddiy e’tirozlarini yozib o‘tadi [16]. Abdulhamid Cho‘lpon maqolani davom ettirib, maktab imtihonlari haqida ham quyidagilarni yozadi: “Turkiston” da Toshkentdagi maktab imtihonlari to‘g‘risida bir kichkina maqola yozilib, imtihonlar natijasida qiz maktablarimizning g‘ayri oddiy (ne normalno) davom etkanliklari aytilib o‘tkan edi. Son jihatidan ham zotan juda oz bo‘lg‘an qiz maktablarimizning yana buning ustiga g‘ayri oddiy davom etishlari umumiy maorifimiz uchun katta kamchilikdir. Buning oldini to‘qtovsiz olmoq darkor”[16]. Taraqqiyparvar Abdulhamid Cho‘lpon xotin-qizlar maktabida o‘qiyotgan qizlarning soni kamayib borayotganidan, maktablarning tugatilayotganidan xavotirlanayotganini, zamondoshlarini esa bu holatlarni oldini olish uchun faqat tushunish, o‘ylash bilan ish bitmasligini aytib, balki jiddiy, amaliy, chora-tadbirlarni ko‘rishga undaydi.

XULOSA

Jadid taraqqiyparvarlari davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri xotin-qizlar ta’limiga e’tibor ekanligini, ularni ham o‘qitishga o‘z zamondoshlariga, millat o‘talariga o‘tkir maqolalari, she’rlari, asarlaridagi g‘oyaviy mazmun orqali da’vat etib, yetkazishga harakat qilganlar. Ma’rifatli, ilmni mukammal egallagan ayollar millatning porloq kelajagiga asos soladi, aqliy, ruhiy, jismoniy jihatdan yetuk, kelajakda jamiyatga munosib hissasini qo‘sha oladigan barkamol avlodni yetishtira oladi deb hisoblaganlar. Shuningdek, xotin-qizlarning ma’rifatli bo‘lishi oiladagi ma’naviyatni, tinchlikni mustahkamlashda ham muhim rol bajarishini o‘z qarashlarida keltirib o‘tganlar. Milliy ziyolilarimiz, jamiyatning ziyoli qatlamlari aniq dastur, reja asosida yangi usuldagi xotin-qizlar maktablari, hunar maktablari ochilishida ham bosh-qosh bo‘ldilar hamda Turkiston o‘lkasi xotin-qizlarining ma’rifatli bo‘lishiga o‘z hissalarini qo‘sha oldilar. Jadidlarning xotin-qizlar ta’limi haqidagi qarashlari, millatni ongini uyg‘otishga da’vat qiluvchi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulla Avloniy. She’rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma/ Nashrga tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – B. 341.342;
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B.128;
3. Is’hoqxon Ibrat. G‘azallar, ilmiy va ma’rifiy maqolalar, tarixiy asarlar/ Nashrga tayyorlovchilar: Ulug‘bek Dolimov, Nurboy Jabborov. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2022. – B. 10;
4. Хoжи Муин. Танланган асарлар//тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Б.Дўстқораев, Н.Намозова; тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.81-84.
5. Беҳбудий М. Танланган асарлар//Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. – Б. 47;
6. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар (Таҳрир хайъати: О. Шарафиддинов, Н. Аминов, Н. Каримов ва бошқ.—Т.: «Маънавият», 2003.— Б. 179;
7. Мунавварқори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Тошкент: “Шарқ” нашриёт матбаа аксиядорлик компанияси, 2001. – Б. 62;
8. N. Husanzoda. Xotun va qizlar uchun o‘quv kerak // Mehnatkashlar tovushi 1920-yil 25-noyabr 187-son –B.1;
9. Nazarova Shahnoza. Sabzavor: bayoz/ So‘ngi so‘z muallifi, izoh va lug‘atlar bilan nashrga tayyorlovchilar: Nodira Egamqulova, Husniya Do‘salova. –Toshkent: Zabarjad Media, 2023. –B.5-43;
10. M.Arifa. Birinchi tovush//Ulug‘ Turkiston: to‘plam. Tuzuvchi va mas’ul muharrir Shahnoza Nazarova. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. –B.52-53;
- 11.Алимова Дилором. Жадидчилик феномени/ - Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б.249-250;

ILMIY AXBOROT

12. Dolimov Ulug'bek. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat [Matn]: risola./U.Dolimov. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. –B.87-91;
13. Jamolova D. Turkiston jadidchilik harakatida xotin-qizlarning tutgan o'rni// ILMIY AXBOROTNOMA 2022-yil, 2-son (132) GUMANITAR FANLAR SERIYASI Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi – B. 43.
14. Мусаллам Абдужаббарова. Туркистон жадид маърифатпарларининг қизларни ўқитиш билан боғлиқ қарашлари//international scientific journal science and innovation special issue: "transformation of education: the role of women in the development of science", February 16, 2024. – Б. 9.
15. Abduqodir-shakuriy. jadidlarimiz.uz sayti//; o'zbek-ziyolilari/Abduqodir-Shakuriy-1875-1943 ziyouz.com/portal-haqida/xarita/;
16. Abdulhamid Cho'lpon. Eng muhim bir vazifamiz//<https://chulpon.uz/eng-muhim-bir-vazifamiz/>;
17. Abdulhamid Cho'lpon. Eski usul maktablarida imtihon//<https://chulpon.uz/maktab-imtixonlari-to'g'risida/>.